



## TARBIYASI OG'IR BOLALARNING KORREKSION ISHLARI

---

*Yulduz Azimova Tavakkalovna*

*Buxoro viloyat G'ijduvon tuman 26-maktab*

*Psixolog. +998919756960*

### ANNOTATSIYA

Deviantlik, og'ishgan xulq, tarbiyasi og'ir bolalar - psixologlar, shifokorlar, pedagoglar, huquqni himoyalovchilar, sotsiologlar, faylasuflarda jonli qiziqish uyg'otib kelgan. "Tarbiyasi og'ir o'smirlar" xulqi mavzusi sohalararo va munozarali xarakterga ega. Atamaning "og'ishgan xulq", ya'ni "ijtimoiy me'yor" tushunchasi bilan payvasta ekanligi muammoni ko'p marotaba murakkablashtiradi, chunki me'yorning chegaralari o'ta shartli, insonda esa barcha ko'rsatkichlar bo'yicha absolyut me'yorning o'zi mavjud emas.

**Kalit so'zlar:** O'smir, deviant, tarbiyasi og'ir, stress, jamoa, og'ishgan xulq, muammo, inqiroz, moslashuv, psixologik muhit, suhbat, axloq, seminar-treninglar, o'zini boshqarish.

### KIRISH

Hammamiz ham deyarli har kuni ijtimoiy istalmagan axloqning turlituman ko'rinishlari - tajovuskorlik, zararli odatlar, qonunga zid harakatlar bilan to'qnashamiz. Shu kabi muammolar bilan shug'ullanuvchi mutaxassislar ko'p yillardan beri qator savollarga javob izlamoqdalar. Bunday axloqning sababi nimada bo'lishi mumkin? Nima insonni qayta – qayta o'ziga va atrofdagilarga zarar keltirishga majburlamoqda? Bundan qanday qutilish mumkin? Va nihoyat "og'ishgan xulq", "tarbiyasi og'ir", "deviant" atamasidan foydalanish qonuniymikan? Ijtimoiy pedagogika va "Tarbiyasi og'ir bolalar" psixologiyasi fanining asosiy maqsadi o'quvchilarda shaxs og'ishgan xulqi muammolarini zamonaviy holati haqida ilmiy asoslangan, yaxlit tasavvurning shakllanishida yordamlashishda ko'rinadi. Og'ishgan xulqni tushuntirish uchun turlicha psixologik kontseptsiyalar qimmatini tan olgan holda kognitiv – axloqiy yondashuvlarni ustuvor sifatida ajratamiz.

### ADABIYOTLAR TAHLILI VA TADQIQOT METODIKASI

"Tarbiyasi og'ir bolalar" tushunchasining ko'p ma'noliligi va bu bilan bog'liq bo'lgan terminologik chalkashliklar, har birimizning ichki dunyomizga xos bo'lgan shaxsiy ozodlik ehtiyoji va jamiyatning cheklashlari orasidagi qarama – qarshilikdir.



Og'ishgan xulq fenomeni mavjudligining o'zi "ozodlik yoki zaruriyat" dilemmasi faktini tasdiqlaydi, xatto jamiyatning umidlariga qarshi har bir odamning shaxsiy tanlovchi predmeti hisoblanadi. Yana bir ma'lum murakkablik shundaki, og'ishgan xulq muammosi bo'yicha turli fanlar masalan, sotsiologiya, tibbiyot, huquq, pedagogikadan izlash lozim bo'ladi. Mavjud bo'lgan adabiyotlar, qoidalardek, yohud o'ta ixtisoslashtirilgan, yoki o'ta ommaviy masaladir. Shu xususda taakidlab o'tishimiz joizki, nosog'lom oila muhiti, oilada farzandga yetarli darjada e'tibor berilmasligi, bolada bo'sh vaqtning ko'pligi, noto'liq oilalar, o'smirlik ya'nikim balog'at yoshidagi krizisdan o'ta olmaslik va aynan o'sha davrda ota-ona tomonidan bola tarbiyasida bo'shliqga yo'l qo'yishlari bugungi kunning dolzarb mavzusiga aylanib borayotgan "xulqi og'ishgan", "tarbiyasi og'ir" bolalarning vujudga kelishiga sabab bo'lmoqda, va asosiy omil deya aytishimiz mumkin. Bu muammoning tub ildizlari, muammoni xal qilish xususida ko'plab chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. "Tarbiyasi og'ir" bolalarni ijobiy tomonga yo'naltirish va muammoning ildizlariga bolta urish maqsadida bugungi kunda davlatimiz tomonidan oila, mahalla, maktab, tengqurlar jamoasi kuchlarini birlashtirish muhim.

Umuman bolani to'g'ri ijtimoiylashishi, jamiyatda o'z o'rnini topishida har bir ijtimoiylashish institutlarining o'rni beqiyosdir. Maktab ijtimoiy pedagogikasining asosiy muammosi tarbiyasi og'ir o'spirinlar hisoblanadi. 12-16 yoshli o'g'il-qizlar o'spirin hisoblanishadi. Bu davr shaxs shakllanishi jarayonida nihoyatda katta ahamiyatga ega. Shu bilan birga ham o'smirlar ham tarbiyachilar uchun qiyin davrdir.

### **MUHOKAMA VA NATIJALAR**

O'smirlik yoshida bolaning hayot sharoitlari va faoliyati ancha o'zgaradi, ruhiyatining qayta qurilishi ro'y beradi. Tengqurlari bilan muomala qilishning yangi shakllari paydo bo'ladi. Jamoada o'spirinning ijtimoiy maqomida o'zgarishlar ro'y beradi, ota-onalar va ustozlar tomonidan unga talablar kuchayadi. Bu yoshda o'spirinning vaqtinchalik oila va maktabda ruhiy ajralishi sodir bo'ladi. O'spirinning shakllanishida ota-onaning ahamiyati pasayadi. Odatda u rasmiy jamoa va norasmiy muomala guruhini tanlash bilan band bo'ladi va unga hurmat bilan munosabatda bo'linadigan guruhni tanlaydi. Bu sport, texnika to'g'aragi bo'lishi mumkin. Shu bilan birga bu guruh o'smirlarning yig'ilishib, ichib-chekib o'tirishadigan yerto'la ham bo'lishi mumkin. Bu yoshda o'smirlarning kattalar xususan ota-onalar bilan muammolari paydo bo'ladi. Ota-ona o'z farzandiga yosh bolaga bo'lganday qarashadi, bola esa bu g'amxo'rlikdan chiqib ketmoqchi bo'ladi. Shuning uchun uning kattalar bilan munosabatida ko'p nizolar kelib chiqadi, bolada kattalar



fikrlariga tanqid bilan qarash kuchayadi. Kattalar bilan munosabatlar xarakteri ham o'zgaradi: bo'ysunish pozitsiyasidan bola tenglik pozitsiyasiga o'tmoqchi bo'ladi. Bir vaqtning o'zida tengdoshlar bilan ham o'zaro munosabatlarning xarakteri o'zgaradi. O'spirinda kattalik hissi tug'iladi va hissiyot mustaqil bo'lishga intilish, kattalarning xohish istaklariga qarshi chiqishda namoyon bo'ladi. Kichkina bolaga qaraganda o'spirinning qiziqishlari ancha o'zgaradi. Ijodiy faoliyatga intilish bilan bir qatorda o'spiringa qiziqishlarning beqarorligi ham xosdir. Shunday qilib o'spirinlik yoshining quyidagi o'ziga xos xususiyatlarini ajratsak bo'ladi: 1.Emotsional voyaga yetmaganlik; 2.O'z xulq-atvorini to'liq nazorat qila olmaslik;

3.O'z ehtiyojlarini qondirish uchun imkoniyat va xoxishlarini to'g'ri baholay olmaslik; 4.Katta bo'lishga intilish O'spirin yetarlicha voyaga yetgan shaxs emas. U insonning eng muhim xislatlari va jihatlari shakllanishi bosqichida bo'lgan shaxsdir. Bu bosqich bolalik va kattalik o'rtasidagi davrdir. Shaxs hali o'zini katta deb hisoblashi uchun yetarli rivojlanmagan, biroq shu bilan birga atrofdagilar bilan munosabatga kirishishi va o'z harakatlarida ijtimoiy norm avaqoidalar talablariga amal qilishi uchun yetarli rivojlangan. O'spirin aqlli qaror qabul qilishga ongli harakatlar sodir etishga va ular uchun axloqiy va huquqiy jihatdan mas'ul bo'lishga qodir. Shuni ta'kidlash joizki, o'spirin o'z xatti-harakatlari uchun huquqiy javobgarlikka tortiladigan shaxsdir. Garchi qonun voyaga yetmaganlarning ijtimoiy psixologik rivojlanishini inobatga olib, ular uchun cheklangan javobgarlikni belgilasa ham katta o'spirinlik va o'smirlilik davrini shaxsiy javobgarlik bilan xarakterlanadigan yosh deb qabul qilsak bo'ladi.

“Tarbiyasi og'ir“ o'smirlar jismoniy jihatdan sog'salomatdir, biroq ularning ta'lim-tarbiyasi buzilgan. Ular o'z tengdoshlaridan o'qishda ortda qoladilar, sababi ularda xotira, tafakkur va tasavvur xislari yaxshi rivojlanmagan. Garchi ular o'zlariga qiziqarli narsani bajarishsa ham ular mehnat qilishni yoqtirishmaydi, o'zlarini biror ishni bajarishga majbur qila olmaydi, ular tizimli shug'ullana olishmaydi. “Tarbiyasi og'ir” o'smirlar maktab intizomi va tartibini buzishadi, o'qishni xohlashmaydi, o'qituvchilar, tengdoshlar, ota-ona bilan nizolashadi. Maktabni tashlab ketishadi, o'zlarini omadsiz deb bilishadi, ular daydilik qilishadi, spirtli ichimliklar, giyohvand moddalar iste'mol qilishadi, huquqbuzarliklar sodir etishadi. Aynan o'spirinlar jismoniy yoki jinsiy zo'rlik oqibatida o'z jonlariga qasd qilishadi. O'spirinlarning pedagogik jihatdan tarbiyalanmaganliklari ijtimoiy pedagogik hodisa bo'lib, oilaviy va maktab tarbiyasining kamchiligidir, maktabdan tashqari tarbiya ishining qoniqarsiz yo'lga qo'yilganligi natijasdir. Agar oila, maktab, maktabdan tashqari muassasada bolani tarbiyalovchi omillarni boshqarsa, ko'cha-kuyda boshqarib



bo'lmaydi. Bu tarbiya jarayonida aks etmasligi mumkin emas. Chunki o'smirlar bo'sh vaqtlarini aksariyati aynan ko'chada o'tkazishadi. U yerda ularning muomalasi, ya'ni eng muhim ijtimoiy ehtiyojlaridan biri shakllanadi. O'quvchi o'spirinlar uchun asosiy faoliyat bu o'qishdir. Biroq o'qish tarbiyasi og'ir o'smirlar uchun o'qituvchilar va tengqurlarining hurmatini qozona olish vosita emas. Shuning uchun ular o'zlariga muhim bo'lgan faoliyatni maktabdan tashqarida izlashadi. Aynan shu yerda, o'zi kabi o'smirlar davrasida ularga yomon xislatlar va qo'pollik uchun tanbeh berishmaydi, aksincha bu kamchiliklarni kattalik alomati deb bilishadi. Biroq hozirgi kunda maktabda, yashash jonlarida bolalar bilan birgalikda ijtimoiy ish olib boorish amaliyoti paydo bo'lmoqda. Bu faoliyat mikrotuman va maktabda ta'limtarbiya ishlarini olib borishning yagona rejasi bo'yicha maktab va barcha ijtimoiy xizmatlarni bolalar tarbiyasi va himoyasi muammosini yechish uchun birlashtiradi. Yagona reja bo'yicha ish yuritish maktab pedagogik jamoasining faoliyatini tubdan o'zgartiradi. Pedagoglar maktabdan tashqari bolalar muassasasi, sinf rahbarlari, guruh tarbiyachilari faoliyatiga qo'shilishadi va ular bilan yaqin hamkorlikda bo'lishadi.

. Pedagogik tarbiyasi og'ir bolalar bilan ishlashda ijtimoiy pedagog maktab va maktabdan tashqari jamoaning ular xulq-atvoriga ta'sirini o'rganadi. Ular bilan ish olib borishda yaxshi natijalarga erishish uchun bir qator shartlarni bajarishi lozim: 1.O'smir bilan aloqa o'rnatish 2.O'smir bilan yaxshi o'zaro munosabatlar o'rnatish 3.Uning reaksiyasi, fikri, intilishlari, qiziqishlari, kelajakdagi rejalarini o'rganish Psixolog A.B.Filonov tomonidan ishlab chiqilgan pedagogik texnologiya ham samarali hisoblanadi. Tarbiya jarayoniga kompleks yondashuv o'smirlar guruhlarini paydo bo'ladigan mikro muhitlarga faol ta'sir qilishni talab qiladi. Kriminologlarning ma'lumotiga ko'ra, voyaga yetmaganlar aksar jinoyatlarini guruh bo'lib sodir edishadi. Biroq voyaga yetmaganlar orasida huquqbuzarlikni bartaraf etish bo'yicha ko'pgina tavsfiyalar individual profilaktika tavsfiyalari hisoblanadi. Amaliyotda isbotlanganidek, ajratib olingan o'smirning huquqbuzarliklarini bartaraf etishga qaratilgan pedagogik faoliyat har doim ham kutilmagan natijalarga olib kelavermaydi. Bu holat huquqbuzar o'smirning yashash joyidagi guruhning a'zosi bo'lganligi va a'zolariga bog'liq bo'lishi bilan izohlanadi.

### XULOSA

Insoniyat mavjudligining muhim shartlaridan biri - bola tarbiyasi hisoblanganligi bois, u dunyoga kelmasdanoq tarbiyaviy tadbirlar boshlab yuboriladi. Shunday bo'lsa-da, jamiyatda xulq-atvorida salbiy illatlarga moyil, ijtimoiy me'yorlarni qabul qilolmaslik xohishi, xatti-harakatlarini nazorat qila



olmaydigan bolalarni uchratamiz. Ularni tabiatan shunday xulq-atvorga ega deb, e'tibordan chetda qoldirish yoki chora-tadbirlar ishlab chiqmaslik jamiyat uchun kattadan-katta yo'qotishlarga olib keladi. Shu bois, tarbiyasi va xulq-atvorida o'zgarishi bo'lgan bolalarga yordam ko'rsatuvchi kishilar psixologlar, pedagoglar hisoblanadi. Chunki, "tarbiyasi og'ir" bolalarda bir qator o'ziga xos tipik illatlar kuzatiladiki, ular: -Ota-onalar, pedagoglar va boshqa katta yoshdagilar bilan munosabatda -O'rtoqlari, sinfdoshlari va boshqa tengdoshlari bilan munosabatda - O'ziga munosabatda va o'zini o'zi tushunishi -Ichki yagonalik, boshqalar bilan do'stlasha olmasligi -O'qishdagi qiyinchiliklarini boshdan kechiruvi kabi. Bugungi kun psixologik-pedagogik tajribalar "tarbiyasi og'ir" bolalarga yordam ko'rsatish uchun quyidagi tartibda ish tutishni taqazo etmoqda: 1.Ishni differensial va individual tashkil etish: Bunda bolalarning tarbiyaviy-profilaktik jarayonda yosh va jinsiga qarab differensial hamda ularni har birini insividual xususiyatlariga qarab ishni rejalashtirish. Yordam faoliyatida xilma-xillikni ta'minlash, ya'ni vaziyat, shart-sharoitga qarab usullar, munosabat o'rnatish. 2.Mintaqaviy xususiyatlarni hisobga olish: "Tarbiyasi og'ir" bolalar bilam tarbiyaviyprofilaktik tadbirlarni o'tkazish jarayonida ularni ijtimoiy-madaniy va iqtisodiy vaziyatlarga tayanib, u tashkil etilayotgan mintaqaning xususiyatlarini hisobga olish lozim. Albatta, yuqorida sanab o'tilgan talablar umumiydir, ammo "tarbiyasi og'ir" bolalar bilan ishlayotgan vaqtda ularga psixologik-pedagogik yordam ko'rsatish uchun bir qator uslub va amallardan foydalanishni bilish lozim.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Kadrlar tayyorlash milliy dasturi.-T.: O'zbekiston, 1997.
2. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. T-2008.
3. Mirziyoev Sh.M. "Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib intizom va shaxsiy javobgarlik-har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak". 2017 y, 104 bet, O'zbekiston matbuot va axborot agentligining O'zbekiston nashriyot matbaa ijodiy uyi.
4. Mirziyoev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. 2017 y, 488 bet, O'zbekiston matbuot va axborot agentligining O'zbekiston nashriyot matbaa ijodiy uyi.